XALQ DEPUTATLARI GURLAN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 7-mart VII-22-18-12-171-K/26 Gurlan tumani

2026-yilda Gurlan tumani bo‘yicha alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ–1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–387-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Gurlan tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ–1105-sonli Qonuniga 9-ilova bilan 2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalari tasdiqlanganligi, shunigdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi 387-sonli qarori 2-bandi v) kichik bandida xalq deputatlari tuman va shahar kengashlariga alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi hamda mazkur yig‘imlardan tushgan tushumlar to‘liq miqdorda tuman(shahar)lar budjetlariga yo‘naltirilishi belgilab qo`yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yuqoridagilardan kelib chiqib 2026-yil uchun Gurlan tumani hududida alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlariga kiritiladigan o`zgarishlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Gurlan tumani hokimining birinchi o‘rinbosari J.Xasanov tuman soliq inspeksiyasi (A.O‘razbayev) bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta′minlash choralarini ko‘rsin.

4. Tuman hokimligining axborot xizmati (O.Jabberganov) “Gurlan hayoti” gazetasi (F.Abdullayev) hamda tuman hokimligi bosh yuriskonsulti (J.O‘razbayev) bilan hamkorlikda mazkur qarorni tuman hokimligining gurlan.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirsin hamda “Gurlan hayoti” gazetasida rasmiy e’lon qilsin.

5. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi N.Azimjonov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **O‘RAZMETOV KOMIL YULDASHEVICH**

Xalq deputatlari Gurlan tumani
Kengashining
2026-yil 7-martdagi
VII-22-18-12-171-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Gurlan tumani hududidaalkogol mahsulotlarini (*bundan pivo mustasno*) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (*bundan pivo mustasno*) realizatsiya qilish uchun yig‘im stavkalari

№	Yig‘im turi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)		
		Bazaviy stavka *(O’RQ-1105 25.12.2025 y. 9-ilova)*	Qo‘llanilgan koeffitsiyent *(1,2 gacha)*	2026-yil uchun yig‘im stavkasi
1	Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	1,2	360 000
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	1,2	180 000